

MAKTAB DARSLIGIDA TERMINLARNING BERILISHI VA ULARGA XOS XUSUSIYATLAR.

Sevinova Diyora Uyg'un qizi

So'x tumani 2- sonli umumiy

o'rta ta'lim maktabining O'zbek (Davlat) tili o'qituvchisi

+998992991249

Annotasiya .Xususan, tilshunoslik terminlari bo'yicha ham tadqiqotlar amalga oshirilgan. Buning natijasida akademik A.Hojiyevning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" yaratilib barcha tilshunoslik terminlari tadqiqotlari uchun beminnat xizmat qilib kelmoqda. Biroq maktab ta'limida ona tili darsliklarida ishlatilgan tilshunoslikka oid terminlar maxsus o'rganilmagan. Xususan, 5-sinf ona tili darsligida qo'llangan tilshunoslikka oid terminlar va ularning ma'nosi yuzasidan tadqiqot olib borilmagan. Bu esa ushbu mavzusining dolzarbligi va ahamiyatini belgilaydi.

Kalit sozlar: masal, sistema,termin ,sinonimiya,omonimiya,dublet, yarim

Terminologik tizimlarda sinonimiyaning nomuvofiqligi, ularning vazifalariga zid ekanligini ko'rsatish bilan bir qatorda, uning ijobiy rolini ta'kidlab, qarama -qarshi bo'lgan hukmlarni ham topish mumkin. Biz bunday nuqtai nazarni topamiz, masalan, V.Tatarinovda: "Texnik til terminologiyada sinonim (variant) dubletdan uzoqroq ekanligini, lekin fikr mavzusiga yangicha qarashni aniqlashning faol lingvistik vositasi ekanligini tasdiqlaydi. Ko'p nominativ til vositalari yordamida aqliy tuzilmalarning o'zgaruvchanligi amalga oshadi, shuning uchun sinonimiya-rivojlanayotgan fanning belgisidir. Ilm -fanning rivojlanish darajasi qanchalik baland bo'lsa, mutaxassisning tafakkuri shunchalik sinonimdir"¹² Bizningcha, buni shu bilan izohlash mumkinki, agar terminologik tizim uchun sinonimlar yoki omonimlarning mavjudligi qanchalik maqsadga muvofiq degan savol tug'ilsa, antonimiyaga shubha yo'q. Biroq,

leksemalarning terminologik ishlatilishi enantiosemiya hodisasini eslatuvchi effektini, ya'ni bitta so'z ichida antonimik ma'nolarning rivojlanishini keltirib chiqarishi mumkin.

Yuqoridagi izlanishlarga asoslanib 5- sinf darsligida qo'llanilgan terminlarning leksik semantikasining tahlilida ularning orasida omonimlar uchraydi. Umumadabiy va . leksik birlikning terminlashuv natijasida omonimlashish sodir bo'ladi, ya'ni jarayoni ifodalash uchun ilgari ma'lum bo'lgan qobiqdan foydalaniladi (Danilenko 1977;27). Mana shunday usulda, masalan, burun, qo'ltiq, bo'g'oz, qo'l, barmoq 27 kabi terminlar shakllangan. Omonim terminlar tahlili: Darslikda uchraydigan **“masala”** so'zi matematika faniga oid ilmiy termin hisoblanadi 1. „Ma'lum sonlar va tegishli munosabatlar asosida noma'lum sonlarni topish haqidagi matematik vazifa” ma'nosida qo'llaniladi. Masalan: O'quvchilar masalani yechishga uzoq tayyorlanishdi. Ammo umumxalq tilida bu so'zning omonim ma'nosi ham uchraydi 2. „muhokama, munozara bilan hal etilishi lozim bo'lgan narsa, ish, vazifa, muammo” Uy-joy masalasi. Iqtisodiy masala. Hayot-mamot masalasi. Masalani hal qilmoq.♦Qo'yilgan masala ikki kun davom etgan seminar yig'ilishida atroflicha muhokama qilindi.N. Safarov, Olovli izlar♦Ikki chol o'zlarini tashvishga solgan muhim masalaga ham javob topmaganlar.M. Ismoilov, Farg'ona tong otguncha. 3.Bahs, muhokama, munozara va shu kabilar mavzui. Masala yana xat ustiga o'tib, Otabek qushbegidan so'radi: — Qo'lingizdagi maktub bilan, ehtimol, biz oqlangan chiqarmiz?A. Qodiriy, O'tgan kunlar♦Kampir bo'lsak ham, majlisga masala bo'lib o'tiribmiz.A. Muxtor, Opa-singillar♦Notiq O'rta Osiyoda tub oltin konlari va ularni o'rganish masalalari ustida to'xtaldi.S. Karomatov, Oltin qum Umuman, biror shaxs yoki narsa bilan bog'liq bo'lgan, nazar-e'tiborda turgan ish, gap va shu kabilar. Hozirgina o'ylab turgan jo'nash masalasi ham uning esidan chiqqan edi.A. Qodiriy, O'tgan kunlar.Diniy mavzudagi tortishuv, munozara yoki va'z. Masala aytishmoq Nima uchundir♦[Husayn Boyqaro] shayxulislomdan shariatga doir bir masalani so'radi.Oybek, Navoiy

„**Yarim**” matematik termin ma’nosi „ butunning ikkidan biriga teng miqdor; 0,5.” Yarim yil. Yarim litr yog‘. Yarim metr las. Yarim kilogramm shokolad. Yarim soat suhbat. Ammo umumxalq tilida quyidagi omonim ma’ nolari ham mavjud. Biror narsaning ikki teng qismidan bittasi, ikkidan bir bo‘lagi, ikkidan biri. 2. .Yilning yarmi. Nonning yarmi. Qishning yarmi tugadi. Ishning yarmi bitdi. ♦Yoni-veri bilan qo‘shilib, bir tanobdan mo‘l yer qo‘lga kiradi. Keyin yaxshilab chopasan. Yarmiga sabzi, yarmiga kartoshka ekasan.Oybek, Tanlangan asarlar ♦Oy ham qora narda ichidan yarim yuzini ochib, yer yuziga mo‘ralab qo‘ydi.A. Qodiriy, O‘tgan kunlar 3.Bir narsaning o‘rtasi, o‘rta beli. Yo‘lning yarmiga yetganda, mashina buzilib qoldi. U yarim kechada yetib keldi. Bu tog‘ning yarmiga arang chiqdik. ♦Xolisaning norozi ovozi eshitildi: — Yarim kecha bo‘ldi-ku! S.Nurov, Narvon ♦Vaqt yarim tundan oshgan edi. A.Muxtor, Opa-singillar To‘liq emas, noto‘liq; chala.

4. Yarim shaffof. Yarim qorong‘ilik. Yarim jiddiy. Yarim hazil. ♦Uning og‘zi yarim ochiq, sariq mo‘ylovi yupqa labining ikki chekkasidan osilib turardi.N. Aminov, Suvarak ♦Aravaga, undan boshqa, yarim yalang‘och, sochlari hurpaygan bir yigit ham o‘tirdi.Oybek, Nur qidirib Ikki xil narsa, modda, hodisa va shu kabilardan tashkil topgan, aralash. Yarim jun mato. Yarim ipak shohi. **Sistema** matematik termin ham ko‘plab ma’ nolarda uchratish mumkin. 1. Ish-harakat, turli jarayon va shu kabilarda qismlarning o‘zaro joylashishi va bog‘liqligidagi tartibot, tizim. 2. Narsa, hodisa va tushunchalarning tasnifi. Linneyning botanik sistemasi. 3. Biror ta’limotda asos bo‘lgan qoidalar, qarashlar, tamoyillar majmui. Dekartning falsafiy sistemasi. Biror ish metodlari, tartib-usullari majmui. Davolash sistemasi. Ta’lim-tarbiya sistemasi. ♦Ta’lim-tarbiya saviyasini oshirishda kabinet sistemasiga o‘tish o‘zining afzalliklarini ko‘rsatayotir.Gazetadan Qonuniy tartibda joylashgan va o‘zaro uzviy bog‘langan qismlardan, elementlardan tarkib topgan butunlik.Bugungi kun talabiga monand holda tabiiy tilga ishlov berish, til korpuslari uchun lingvistik ta’minotni yaratish, resurs elektron lug‘atlar tuzish, avtomatik tarjima, kompyuter tahlili va tahriri

kabilar doirasida bajarilayotgan ishlarning amaliy ahamiyati nechogʻli yuqori ekanligi barchaga ayon.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati:

1. 5- sinf ona tili darsligi — T. Gʻafur .Gʻulom 2020
2. Mengliyev B., Sayfullayeva R. Va boshq. Milliy tilshunoslik mustaqil Rivojlanish yoʻlida // “Maʼrifat” gazetasi, 2007 yil 21 may;
3. Safarov SH. Pragmalingvistika. –T.:Fan, 2008;
4. Safarov SH. Kognitiv tilshunoslik. –T. Fan, 2007;
5. Toirova G., Safarov SH. Nutqni sotsiopragmatik oʻrganish asoslari. –Jizzax:NS, 2006.
6. Ким В.Н., Ким Т.С. Социально-политическая терминология.–Т., . 2009. С.
7. Nurmonov A. Hozirgi Oʻzbek adabiy tili. –T.: Sharq, 2002. –B. 62-63.
8. Danilenko V.P. Русская терминология: Опыт лингвистического
9. Описания. -М.:Наука, 1977. -S.157